

## SHARQ ALLOMALARINING TIBBIYOT SOHASIDAGI BUYUK MEROSI

*Adxamjon Qosimov*

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti*

*“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi assistenti*

*Elektron pochta: [adhamjonqosimov1994@gmail.com](mailto:adhamjonqosimov1994@gmail.com)*

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur ilmiy maqolada sharqning buyuk mutaffakir va olimlarining ilmiy meroslari, shuningdek ularning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissasi va ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni haqida fikr yuitledi.*

***Kalit so'zlar:** Qomusiy olimlar, tibbiyot psixalogiyasi, Abu Bakr ar-Roziy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, tabib Abu Mansur, erta, tarbiya, parhez.*

### **ABSTRACT**

*In this scientific article, he reflected on the scientific legacy of the great thinkers and scientists of the East, their invaluable contribution to the development of world civilization, and their role in the development of science.*

***Key words:** Great scholars, medical psychology, Abu Bakr al-Razi, Abu Ali ibn Sina, Abu Rayhan Beruni, doctor Abu Mansur, early education, diet.*

### **KIRISH**

Yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar, qomusiy olimlar, jamiyatning har bir sohasiga oid masalalarni o'rganib, ularga munosib yechim topgan, xususan tibbiyot sohasi – eng nozik va ijtimoiy soha bo'lib xalq salomatligi va sog'lom turmush tarzini ta'minash juda katta ilm va mehnat talab etiladi.

Sharqning turli hududlarida yashab ijod qilgan buyuk zabardast olim va allomalarning mumtoz ilmiy merosi, shuningdek ularning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissasi va ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rnini chuqur ilmiy tadqiq etish, har tomonlama teran o'rganish va keng tahlil qilish uchun

vatanimiz va xorijiy davlatlardagi kutubxona va arxiv fondlarida saqlanayotgan qo'lyozma asarlarini aniqlash va o'rganish muhim va dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Tibbiyot sohasiga ulkan hissa qo'shgan allomalardan biri Abu Rayhon Beruniyning „Kitob assaydana fit tib“ („Tibbiyotda dorishunoslik“) asari o'sha davr tibbiyotining eng katta yutug'i hisoblanib, O'rta Osiyoda dorishunoslik ilmi — **saydanaga** asos bo'ldi. Abu Bakr Roziyning tabobat sohasidagi asarlari umuman jahon tibbiyotining rivojlanishi, boyishida g'oyat ulkan ahamiyat kasb etdi. Olimning tibbiyot ensiklopediyasi hisoblangan 25 jildli „Al Jomi' alkabir va qad urifa bil Hoviy“ („Al Hoviy nomi bilan tanilgan katta to'plam“) asari shu davrgacha G'arb va Sharq Tibbiyotida qadrli bo'lib keldi; 10 jildli „Tabobat kitobi“ hamda „[Chechak](#) va qizamiq haqida“gi kitobi ham tibbiyotda mashhur edi. O'rta asrda Abu Ali ibn Sino Tibbiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Uning „al Qonun fittib“ („Tib qonunlari“) asari asrlar osha jahon tabobatida asosiy qo'llanma bo'lib keldi. Bu asar Tibbiyotning asosiy sohalari: anatomiya, fiziologiya, patologiya, terapiya, dorishunoslik, gigiyena va boshqalarni qamrab olgan. Isitma, o'lat, chechak, qizamiq kabi yuqumli kasalliklarni qandaydir ko'zga ko'rinmas jonivorlar qo'zg'atishi to'g'risida fikr yuritgan. U buyrak toshlarini operatsiya qilib olib tashlash, traxeotomiya qilish, jarohatlarni davolash usullari haqida yozadi. Ibn Sinoning bizgacha yetib kelgan eng muhim asarlaridan yana biri „al Adviya al qalbiya“ („Yurak dorilari“)dir. Unda olim yurak kasalligida qo'llanadigan (o'zi topgan) dorilar haqida yozadi. Taniqli tabib Abu Mansur tibga oid „Majmu'ayi kabir dar adviyat mufrada“ („Sodda dorilar haqida katta to'plam“), „Risola dar iloji amrozi sadr“ („Ko'krak kasalliklarining davosi haqida risola“), „Kitob g'uno va muno“ („Maqsadlarni mukammal bayon qilgan kitob“) kabi asarlar yozgan. Bularda ichki kasalliklar, teri kasalliklari, isitmabezgak kasalligi, ularga qarshi dorilar va davolash usullari bayon etilgan.<sup>1</sup>

Tibbiyot psixologiyasi eng e'tibor beriladigan, tom ma'noda olganda, bemor psixologiyasini o'rganuvchi fandır. Qadimgi davr adabiyotiga nazar tashlaydigan

---

<sup>1</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tibbiyot>  
[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

bo'lsak, tibbiyot, falsafa va psixologiya fanlari chambarchas bog'lanib ketganligining guvohi bo'lamiz. Miloddan ilgari yashab o'tgan deyarli barcha faylasuflar tibbiyot va psixologiyaga oid o'z fikrlarini yozib qoldirishgan, chunki ular ruhiy kuchlar manbaini inson miyasi bilan bog'lashgan.

Eronda tavallud topgan mashhur mutafakkir Abu Bakr ar-Roziy (865–925 yy.) tibbiyot olamida o'chmas iz qoldirdi. U o'z davrining buyuk tabibi bo'lgan va tarixchilarning yozishicha, bemorlarni davolashda xatoga yo'l qo'ymagan. U biror yangi dorini bemorga berishdan oldin hayvonlarda sinab ko'rgan.<sup>2</sup>

Ibn Sino har bir bemorni davolashdan oldin uni diqqat bilan o'rganish, oilasi va yashash sharoiti bilan tanishish o'ta muhimligini uqtirgan. Uning bu fikrlari psixogigiyena fani vazifalariga o'xshab ketadi. Ibn Sino asarlarida psixoprofilaktikaga oid ishlarni ham ko'p uchratamiz. Masalan, mutafakkir kasalliklarning oldini olishda tarbiyaga alohida urg'u bergan.

«Tarbiya erta bolalik davridan boshlanishi kerak», degan edi Ibn Sino. Shuningdek, u bolani qo'rqqoq, g'amgin yoki juda erka qilib tarbiyalamaslik, ota-ona bola nimani xohlayotganini doimo sezishi va o'sha narsani bolaga yetkazib berishga harakat qilishi, yomon narsalardan esa yiroqlashtirishlari zarurligini uqtirgan. Bu qoidalarga rioya qilish bolaning zehni o'tkir, tanasi sog'lom o'sishini ta'minlashini ta'kidlab o'tgan.

Ibn Sinoning organizm faoliyatini boshqarishda asab tizimining ahamiyati haqidagi ta'limoti Yevropa olimlari tomonidan XX asr boshlarida yaratilgan nervizm ta'limotiga juda o'xshab ketadi. Ibn Sino tomir urishining asab tizimi faoliyatiga bog'liqligini ko'p tajribalarda isbotlab bergan. U ko'pgina kasalliklarni tomir urishiga qarab aniqlagan. Ibn Sino nafaqat turli kasalliklarda tomir urishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan, balki turli hissiy zo'riqishlar va asab kasalliklarida tomir urishi o'zgarishlarini mufassal bayon qilgan.<sup>3</sup>

Kasallikni davolashda ovqatlanish, ya'ni parhezni muhim omillardan deb hisoblaydi va har bir kasallik uchun o'z ovqatlanish tartibini beradi. Chunonchi,

---

<sup>2</sup> Sharqlik mutafakkirlar inson ruhiyati va salomatlik haqida. <https://zamin.uz/uz/jamiyat/82397-sharlik-mutafakkirlar-inson-ruijati-va-salomatlik-aida.html>

<sup>3</sup> Abu Ali Ibn Sinoning hayot yo'liga nazar. [www.avicenna.uz](http://www.avicenna.uz).

jigar kasalliklarida ko'proq mayiz, anjir, anor suvi iste'mol qilishni buyuradi. Bu esa bunday kasalliklarni hozirgi glyukoza va insulin bilan davolash usullarining qadimgi ko'rinishidir.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, Sharq allomlarining ilmiy merosi asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, eng muhim vazifa hisoblanib, buyuk olimlarning asarlarini kelajak avlodga batafsil yetkazib berish va mohiyatini tushinib yetish hamda tushuntirish yo'lida astoydil katta mehnat talab etiladi. Va buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo'lishga bilm, tafakkur va kuch-g'ayratimizni ishga solamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sharqlik mutafakkirlar inson ruhiyati va salomatlik haqida. Zamin.uz. 02.01.2021
2. Abu Ali Ibn Sinoning hayot yo'liga nazar. Xalq tabobati jurnali. 20/05/2020
3. Internet saytlari: [www.avicenna.uz](http://www.avicenna.uz).
4. Adxamjon Qosimov. Sharq allomalarining asarlari orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari. Tadqiqotlar jahon ilmiy – metodik jurnali. 41-son\_1-to'plam\_Iyul-2024. 82-84 betlar.